

**FUQAROLIK JAMIYATI SHAROITIDA MA'NAVIY BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASH  
MASALALARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10156471>

**S.Qo'chqorov**

*FarDU o'qituvchisi,*

**R.Po'latov**

*FDU XTF fakulteti 2-bosqich talabasi.*

**Annotsiya:** *Ushbu maqolamda talabalarning harbiy bilimga ega bo'lishi shaxs sifatida shakllanishida muxim a'xmiyatga ega. Chunki, harbiy bilim talabada mas'uliyat, fuqarolik jamiyati sharoitida ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash masalalari, intizom xissini shakllantirish bilan birga jismonan va ruhan chiniqtiradi, irodasini charxlaydi. Talabalarni har tomonlama barkamol, vatanparvarlik ruxida tarbiyalaydi. Harbiy bilim talabalarda Vatan oldidagi mas'uliyatni xis qilish, Vatanga sadoqat tuyg'usi shakllanishida asosiy omil sanaladi. Qolaversa, milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, va bilim olishga ishtiyoq uyg'otadi. Mana shu tuyg'ularning asosi harbiy ta'lim jarayonida shakllanadi.*

**Kalit so'zlar:** *Vatan, qashshoq, ma'naviyat, sust, bilim saviya, barkamol avlod, shakllantirish, inson, aqliy, jismoniy, ma'naviy, axloqiy, jihat, yetuklik, taraqqiyot, mutafakkir, kibru havo, manmanlik, xudbinlik.*

**Аннотация:** *В данной статье приобретение военных знаний обучающимися имеет большое значение в формировании личности. Потому что военное образование тренирует студента физически и морально, обостряет его волю, формирует чувство ответственности, нравственно совершенное поколение в условиях гражданского общества, чувство дисциплины. Он воспитывает студентов во всестороннем патриотическом духе. Военное образование считается основным фактором формирования чувства ответственности перед Родиной и чувства верности Родине. Кроме того, оно пробуждает национальное самосознание, патриотизм и желание учиться. Основа этих чувств формируется во время военной подготовки.*

**Ключевые слова:** *Родина, бедность, духовность, медлительность, уровень знаний, совершенное поколение, образование, человек, умственный, физический, духовный, нравственный, аспект, зрелость, развитие, мыслитель, высокомерие, высокомерие, эгоизм.*

**Annotation:** *In this article, the acquisition of military knowledge of students is of great importance in the formation of a person. Because military education trains the student physically and mentally, sharpens his will along with the formation of a sense of responsibility, morally perfect generation in the conditions of civil society, and a sense of discipline. It educates students in a comprehensive, patriotic spirit. Military education is*

*considered the main factor in the formation of the sense of responsibility to the Motherland and the feeling of loyalty to the Motherland. In addition, it awakens national identity, patriotism, and a desire to learn. The basis of these feelings is formed during military training.*

**Key words:** *Motherland, poor, spirituality, slow, level of knowledge, perfect generation, formation, human, mental, physical, spiritual, moral, aspect, maturity, development, thinker, arrogance, arrogance, selfishness.*

O'zbekiston bozor munosabatlariga to'la o'tayotgan davrda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning ahamiyati tobora o'sib borayotganligi ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashni eng dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'ymoqda. Bugungi kunda yuksak ma'naviyatli va axloq-odobli, iqtidorli, bilim saviyasi yuqori va chuqur, zukko, ishbilarmon, ishchan kishilar zarur. Qashshoq ma'naviyat, ma'naviy-axloqiy sust, bilim saviyasi yuzaki va past, ishning ko'zini bilmaydigan kishilar bozor munosabatlarida ko'zlangan maqsadga erisha olmaydilar. Bundan xulosa shuki, hech kechiktirmay, ikkilanmay ma'naviy-ma'rifiy tarbiya masalasi haqida o'ylash, uni to'g'ri yo'lga solish vazifasi kelib chiqadi. Bunda biz ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning «Tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir», degan o'gitiga amal qilishimiz zarur. Avvalo shuni aytish kerakki, ma'naviy barkamol inson tushunchasining o'zi keng qamrovli, serqirra tushuncha. Ma'naviy barkamol inson - komil inson tushunchasi bilan hamohangdir. Ayni vaqtda ma'naviy barkamol inson tushunchasi sog'lom avlod tushunchasi bilan ham bog'lanib ketadi. Ilmiy adabiyotlarda bu tushunchalar alohida-alohida ishlatilsa-da, mohiyatan ularning hammasi inson axloqi va odobini, ularda shakllangan barcha ijobiy xislatlarni, ularning insonlarga, jamiyatga va Vatanga bo'lgan munosabatlaridan tortib, toki oilaga, ota-onaga va boshqalarga munosabatlarining barcha qirralarini qamrab oladi. Barkamol avlodni shakllantirish insonning aqliy, jismoniy, ma'naviy, axloqiy jihatdan yetukligi, Vatan taraqqiyoti, el-yurt farovonligi uchun jon kuydirishi, ezgu g'oya va niyatlar bilan bunyodkorlik va yaratuvchanlik fazilatlarini majmuini anglatadi. "Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz", degan edi Birinchi Prezidentimiz I.Karimov. Yoshlarni barkamol qilib tarbiyalashda bobolarimizdan qolgan buyuk ma'naviy merosdan unumli foydalanmoq kerak. Ayniqsa, Abu Nasr Forobiy, yurtdoshimiz Aziziddin Nasafiy, Alisher Navoiyning komil inson haqidagi g'oyalari barkamol avlodni tarbiyalashda biz uchun eng boy manba hisoblanadi. Mashhur faylasuf va shoir Aziziddin Nasafiy komil insonga quyidagicha ta'rif beradi: «Bilgilki, barkamol inson deb shariat va tariqat va haqiqatda yetuk bo'lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin. Bilgilgi, komil inson shunday insondirkim, unda quyidagi to'rt narsa kamolga yetgan bo'lsin: yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq va ma'rifat». Mutafakkirning mazkur

ta'rifidan kelib chiqadigan bo'lsak, barkamol inson hayotdan tashqari bo'lgan allaqanday mavhum zot emas, balki real odamdir. Yaxshi fazilatlarni egallab borgan inson ana shunday martabaga ko'tarila oladi. Buning uchun esa riyozat chekib, tariqat maqomini bosib o'tish zarur. Mir Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asarida yuksak ma'naviy axloqning yaxlit konsepsiyasi bayon qilingan. Ulug' mutafakkir kibru havo, manmanlik, xudbinlikni keskin rad etadi, buning o'rniga xushtavoze'lik, yuksak did, ma'rifatga, ilmga oshuftalik, vatanparvarlikni ulug'laydi. Alisher Navoiyning mazkur qarashlari har bir dars mavzusiga singdirib borilsa, o'quvchi-yoshlar tafakkurida barkamollik sari sezilarli evrilish bo'lishi tabiiy. Bugungi kunda mamlakatimizda mutlaqo yangicha, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy yangilik va texnologiyalarni o'zlashtirayotgan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol topayotgan ma'naviy va jismoniy yetuk yoshlarni tarbiyalashning mukammal tizimlari yaratilmoqda. Kadrlar tayorlash milliy dasturi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlarda o'sib kelayotgan yosh avlodning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida, ularni yuksak ma'naviyatli insonlar etib voyaga yetkazishda, qiziqish va layoqatlariga monand kasb-hunarlarini egallashlarida va ijodiy-intelektual salohiyatlarini yuzaga chiqarishda keng imkoniyatlar belgilab berilgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Milliy istiqlol g'oyasi (Bakalavr bosqichi uchun darslik). – T.: Akademiya, 2005. – 368 b.
2. Pedagogika nazariyasi. X.Ibragimov, Sh.Abdullaeva. T.: Fan va texnologiyalar, 2008-yil.
3. Qo'chqorov S., & Azamatov, J. A. (2022). TA'LIM-TARBIYA TIZIMI TARAQQIYO TINING YANGI BOSQICHI. SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 1(4), 200-204.
4. Qo'chqorov, S. (2022). YANGI PEDAGOGIK TEXOLOGİYALAR. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(11), 375-377.
5. Qo'chqorov S., & Azamatov, J. A. (2022). TA'LIM-TARBIYA TIZIMI TARAQQIYO TINING YANGI BOSQICHI. SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 1(4), 200-204.
6. Mansurjonovich, M. B., & Axadjonovich, Q. C. S. (2022). BO 'LAJAK HARBIY XIZMATCHILARDA KASBIY MOSLASHUVCHANLIKNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK ASOSLARI. Pedagogical Sciences And Teaching Methods, 2(17), 176-179.
7. QO'CHQOROV S., & AZAMATOV, J. A. (2022). TA'LIM-TARBIYA TIZIMI TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHI. SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 1(4), 200-204.
9. QO'CHQOROV S. (2022). YANGI PEDAGOGIK TEXOLOGİYALAR. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(11), 375-377

10. Аҳаджонович, Қ. С. (2023). “ЁШЛАРНИ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШ” КОНСЕПСИЯСИ ВА УНИНГ ЁШЛАР ТАРБИЯСИДАГИ ЎРНИ. О'ЗБЕКISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(18), 1041-1044.

11. Аҳаджонович, Қ. С. (2022). БЎЛҒУСИ ҲАРБИЙ МУТАХАССИСЛАРИДА ВАТАНГА ФИДОИЙЛИК ТУШУНЧАЛАРИНИ СИНГДИРИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ. PEDAGOG, 5(6), 731-750.

12. Hakimovich, J. B., & Axadjonovich, Q. C. S. (2022). VATANPARVARLIK. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(13), 723-726.

13. Mansurjonovich, M. B., & Axadjonovich, Q. C. S. (2022). HARBIY PEDOGOGIKA VA HARBIY PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASH MASALALARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(13), 744-749.